



## MUSIQA SAN'ATIDA RUBOB CHOLG'USINING O'RNI VA AHAMIYATI

**Gadoyeva Muborak Jumaqulovna**

Termiz davlat pedagogika institute  
2-kurs magistranti

muborakgadoyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7812980>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-april 2023 yil

Ma'qullandi: 05-april 2023 yil

Nashr qilindi: 10-april 2023 yil

### KEY WORDS

*Qashqar rubob, ijrochilik, cholg'u, ta'lim, musiqa, san'at, shtrix, uslub.*

### ABSTRACT

*Rubob cholg'u ijrochiligini rivojlantirishda, maqom ijrochiligini chuqur egallashda oldimizda juda ko'p muammolar mavjud. Bu muammolarni yechish uchun ko'p izlanishlar olib borishimiz zarur. Maqolada o'zbek mumtoz musiqa san'atini qashqar rubob cholg'usining tarixiy taraqqiyoti, o'rin va ahamiyati masalalariga e'tibor qaratilgan..*

Musiqiy merosimiz, jumladan milliy cholg'u ijrochiligimiz tarixi ham eramizdan bir necha asr oldingi davrlarga borib takaladi. Xalqimiz va millatimizning barcha rivojlanish davrlarida qo'shiq bilan bir qatorda dutor, tanbur, doyra, ud, g'ijjak, qonun, rubob kabi milliy cholg'u sozlarimiz qalb qo'riyu — ko'ngil davosi sifatida bebaho ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qilgan.

Milliy cholg'ular ichida qashqar rubobi alohida o'rin tutadi. Professor S.M.Taxalov milliy cholg'ularimizdan sanalgan qashqar rubobi va afg'on rubobi cholg'ulari borasida juda ko'plab izlanishlar olib borgan. Rubob sozi o'zining jarangi, nolayu qochirimlari, rang-barang ijro bezaklari va nihoyat, o'rganish va ijro etish jihatidan qulayligi bilan xalqimiz orasida naqadar ommaviylashgan va sevimli sozga aylangan.

Rubob nafaqat respublikamizda, balki qardosh Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston respublikalarida ham keng tarqalgan. Shuning uchun ham professor S.M.Taxalov o'z ilmiy tadqiqot ishini "O'zbek va tojik an'anaviy cholg'u musiqasi ijrochiligi va nota yozuvlari muammolari" doirasida olib bordi va unda asosan qashqar rubobi va afg'on rubobi cholg'ulari ijrochiligi tilga olingan. Chunki rubob sozida milliy kuylar qatori mumtoz klassik kuylarni, bastakorlar ijodiga mansub rang-barang kuylarni, mashhur chet el kompozitorlari tomonidan yozilgan murakkab yirik asarlarni ham mohirona ijro etish mumkin.

Rubob chalish mahoratini egallashga ahd qilgan har bir talaba sozini doimo avaylab asrashga o'rganishi, ustozning barcha o'gitlariga qat'iy amal qilishi, berilgan vazifalarni ishtiyoq va mas'uliyat bilan bajarib borishi, sozda ijro etish mahoratini puxta egallash uchun muntazam va bisyor ijodiy mehnat qilishga o'rganib borishi alohida ahamiyatga ega.

An'anaviy ijrochilik san'ati va mashhur rubobchilar XX-asr boshlarida O'zbekistonda bir qancha folklor etnografik ansambllar, xalq teatrlarining tuzilishi, Turkiston xalq konservatoriyasi va ko'plab turli ijodiy jamoalarning shakllanishi, o'zbek musiqasining tadqiq qilinishi, ularni yozib olinishi kabi ko'plab ishlar qilinishi, musiqa va ijrochilik san'atining yanada rivojlanishiga, taraqqiy topishiga turtki bo'ldi.

Keyinchalik O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshida birin-ketin tuzilgan "Shodlik", "Lazgi", "Go'zal", "Zarafshon" va "Bahor" kabi ashula va raqs ansambllari, O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli va ko'plab viloyatlardagi turli ashula va raqs ansambllarining O'zbekistonda va horijiy mamlakatlardagi konsert faoliyatlarida ijrochilik san'ati, xususan, rubob ijrochiligi ham targ'ibot qilinib, rivojlantirib kelinmoqda. Bu jamoalar tarkibida mashhur rubobchi sozandalar ijod qilishgan va ijod qilmoqdalar.

An'anaviy rubob ijrochiligi darslarida, ta'lim oluvchilarni ijro mahoratlarini oshirish hamda estetik tarbiyalash muammosi hozirgi kunda nihoyatda dolzarbdir. Bu borada professor S.M.Taxalovning olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasida yozilgan bir nechta uslubiy qo'llanma va darsliklaridan unumli foydalanish mumkin.

Maqom san'ati vositasida milliy ruhni tarbiyalash faqat ma'lum bilimlar bilangina emas, balki axloqiy tushunchalarni egallash va unga amal qilishda ham asosiy mezonlardan hisoblanadi. Inson san'at asarini to'liq idrok etishi uchun uning asosiy g'oyasini, maqsadini, tushunishi muhim sanaladi.

Qashqar rubob, afg'on rubob, ud, tanbur va dutor kabi milliy cholg'ularimiz ijrochiligida mezrob (mediator) yoki noxun orqali hosil qilinadigan oddiy va murakkab bo'lgan zarblar bir necha xildan iborat. An'anaviy musiqa ijrochiligida urib chalinadigan torli cholg'ularga xos bo'lgan zarblarning asosan sakkiz xili haqida tushuncha berishni lozim ko'rdik. Bu zarblarni keltirish jarayonida professor S.M.Taxalovning 1987 yilda himoya qilingan "O'zbek va tojik an'anaviy cholg'u musiqasi ijrochiligi va nota yozuvlari muammolari" nomli dissertatsiyasida keltirilgan ma'lumotlardan ham foydalandik. Bular: Yakka zarb, qo'sh zarb, zarbi parron (uchma zarb), bilak zarb, rez, kalta rez, teskari zarb va ufar zarb. Ushbu zarblar uchun mashqlar berishdan maqsad, ijrochini chap va o'ng qo'l harakatlarini musiqiy asarlar ijro etish oldidan jonlashtirish va tavsiya etilayotgan kuyning pardalariga ko'nikma hosil qildirishdir. Bu haqda dissertatsiyamizning 3-bobida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, har qanday musiqa asari bu badiiy asar. Uni badiiy asar darajasida ijro etish sozandadan puxta bilim va yuksak mahorat talab qiladi. o'qituvchi bo'lg'usi sozandani tarbiyalar ekan unda shu cholg'uga nisbatan mehr uyg'ota olishi kerak. Buning uchun dastlabki davrlardanoq imkoni boricha shu cholg'uda yaxshi jaranglaydigan, talabaga yoqadigan asarlarni pedagogik repertuar tarkibiga doimiy kiritib borish lozim. Asarlar ustida ishlaganda boshlang'ichdavrda boshlab har bir shtrixni yazshi tovush hosil qilinishiga e'tibor berish kerak. Chunki sozandaning tovushining kuchi va sifati ijroning badiiy ifodalaydigan asosiy mezonlardan biridir. Badiiy ifodalik qashqar rubobi cholg'u ijrochiligida muhim ahamiyatga ega.

Professor S.M.Taxalovning ta'kidlashicha, sozandaning ijro texnikasi qanchalik yuqori bo'lmasin agar u asarning badiiy xususiyatlarini ochib bera olmasa tinglovchida yaxshi taassurot qoldira olmaydi. Bunday asar quruq, go'yo jonsiz, ruhsiz oddiy bir ko'rinishga ega bo'lib qoladi. Buning uchun sozanda o'z cholg'usini yaxshi bilishi va shtrixlarning ifodalilik xususiyatlarini yaxshi egallagan, ularni kerakli darajada qo'llay bilish, hamda tiniq, ohangdor, yig'ilgan tovushni hosil qila olishi va uni boshqara bilish kabi malakalarni to'liq o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Bunday malakalarni o'zlashtirish juda murakkab bo'lib muayyan vaqt talab etadi. Tajribada ijro texnikasi yuksak darajada, lekin kuyni his qila olmaydigan sozandalar uchrab turadilar.

O'qituvchi talaba bilan shug'ullanar ekan har bir mashg'ulotda talabani musiqani his qila olishva uni sezish kabi nozik tuyg'ularini uzluksiz ravishda tarbiyalab borishi kerak kuyning, har bir cholg'uning o'z imkoniyatlari va o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari mavjud.

Cholg'ularning rang-barang koloritik xususiyatlari ularning o'zigagina xos bo'lgan asarlarni chalish imkoniyatini yaratadi. Shunday ekan har bir sozanda o'z cholg'usini yaxshi bilishi kerak.

Kuyning dinamikasidan tortib har bir shtrixlarni qo'llashgacha bo'lgan barcha ijro etish usullari badiiy ifodalilik vositalari bo'lib xizmat qiladi, ya'ni sozning holati, tovush sifatining buzilib qolmasligini doim nazorat qilib turishi lozim. O'qitishning ilk bosqichlaridanoq talabalarni bunga o'rgatib borish kerak. Musiqa asarining to'kis jaranglashida yaxshi, sifatli cholg'uning ahamiyati kattadir.

O'quv davrida ma'lum o'quv rejasidagi kuylarni yoki faqat imtihon asarlarinigina o'rganmasdan talabani musiqiy ongini o'stirish, xotirasini va ritmini his qilish hamda eshitish qobiliyatlarini ham tarbiyalab, rivojlantirib borishga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim, deydi professor S.M.Taxalov o'zining o'quv uslubiy qo'llanmasida. Buning uchun talabani o'zi dars jarayoniga ijodiy yonlashib talabalarni sinchiklab kuzatib borishi va maqsadga erishishning har xil imkoniyatlarini topishi mumkin. Shulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

1. Masalan: talabaga biron-bir asarni o'qituvchining o'zi ijro etib berib, birgalikda tahlil qilish va talabalarga badiiy tomonlarini tushuntirib aniqroq ochib berish: asardagi musiqiy jummlarni obrazli qiyoslab, ularni talabani his tuyg'ulari orqali tushuntirib berish.

2. Magnit tasmlaridagi kuy va qo'shiqlarni talabalar bilan tinglab, muhokama qilish yoki bir asarni qashqar rubobdagi 2-3 xil ijrolarini solishtirib ularning farqlarini, kamchiliklarini va afzalliklarini tushuntirib berish.

3. Iloji boricha o'quv rejasidan tashqari o'zbek xalq kuylaridan biron-bir asarni hamma talabalar bilan notasiz og'zaki an'anada o'rganish va chalish.

4. O'quv muassasasi doirasida undan tashqaridagi konsertlarda chiqish va tinglash. Konsertdan keyin albatta o'qituvchi konsert ijrochiligini tahlil qilib berishi va undagi yaxshi tomonlarni talabalarga ko'rsatib berishi o'zining yaxshi samarasini beradi. Lekin shunga qaramay tajribali o'qituvchi va sozandalarning ta'kidlashlaricha talabaga tushuntirilayotgan musiqani o'qituvchining o'zi qanday tushuntirgan bo'lsa shunday ijro etib ko'rsatib berishi talabani materialini tez o'zlashtirishida eng asosiy omildir. Bundan tashqari intilish, qiziqish va o'qituvchiga bo'lgan cheksiz hurmat paydo bo'ladi.

5. Faqatgina rubob uchun asarlarni tahlil qilmasdan boshqa cholg'ulardagi ijrolarni konsertda yoki magnit yozuvlaridan eshitish va uni tahlil qilish. Xuddi shu ijrodagi asarni rubob ijrosida eshitish. Va ulardagi badiiy ifodalilik imkoniyatlarini, vositalarini va shtrixlarni solishtirib ko'rish va tahlil qilish.

Biz shtrixlar borasida har bir shtrix muayyan asarda har-xil xarakterga ega deb aytib o'tgan edik. Yevropa klassiklari asarlarini rubobda ijro etganda avvalo talaba asar va asarning muallifi, yaratilgan davri, asarning janri va yo'nalishini tushunib yotgandagina asarni badiiy xarakterini yechib bera oladi. Masalan: Yevropa klassiklari asarlarini ijro etganda tovush mayin tiniq, zich va yig'ilgan sifatlarga ega bo'lishi kerak. Bunda zarb torga mediatorning o'rtasi bilan berilib chap qo'l barmoqlari bilan aniq va qattiq bosish kerak bo'ladi. O'ng qo'l

harakati amplitudasi qisqa va yengil bo'lsa, o'zbek xalq kuylari va shashmaqom namunalarida esa shu zarb harrakka- n/n yaqinroq joyda urilib jarangdor, tiniq tovushga erishiladi.

Professor S.M.Taxalov rubob cholg'usida o'zbek mumtoz musiqiy asarlarini ham, Yevropa klassik asarlarini ham birdek mahorat bilan ijro eta oladigan sozanda sanaladi. Bu asarlarni ijro etar ekan S.M.Taxalov rubobning barcha imkoniyatlaridan unumli foydalanadi, ya'ni barcha zarblar, shtrixlarni o'z o'rnida munosib ravishda qo'llab, har qanday asarni maromiga yetkazadi. Hozirgi kundagi ijrolarini ijtimoiy tarmoqlar orqali tomosha qilib, bunga guvoh bo'lish mumkin.

Xuddi shunga o'xshash triolli shtrix ham o'zbek raqs kuylarida butunlay boshqa xarakterga ega bo'lib tovushlarni pastga–tepaga urish tartibi ham turlicha bo'ladi. Rus kompozitorlari va Yevropa klassiklarining asarlari yoki ozarbayjon kompozitorlari asarlarida esa bu shtrixning xarakteri qat'iy triol ko'rinishiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari stakkato usulida chalinib pauzalar ham kuyning melodik tuzilmasida asosiy o'rin tutadigan jumalarda ayniqsa ritmning juda aniqligi talab etiladi. Bu ham badiiy ifodalilikning bir ko'rinishi bo'lib, shu bilan kuyning xarakteri ochiladi. Aniq ritmni tarbiyalash har bir talabada har xil kechadi. Shuning uchun sanash, metronom yordamida chalish, fortepiano jo'rligida ijro etish, ansambl ijrochiligining turli ko'rinishlaridan (duet, trio, kvartet) foydalanish, doira jo'rligida maxsus kuylar o'rganish o'zining yaxshi samarasini beradi.

Tremolo shtrixi ayniqsa juda rang–barang. Bundan tashqari bu shtrixning xarakterini ochishda faqat o'ng qo'lning tekis harakati bilan emas, balki chap qo'l barmoqlarining tordagi harakatlari, ularni pardadan pardaga silliq o'tishi yoki sirg'alishlari hamda torni har-xil me'yorda to'lqinlata olishi bilan erishiladi. Birgina o'zbek musiqasining o'zida tremoloning bir necha turini ko'rishimiz mumkin. Buxoro, Samarqand yo'nalishi kuylaridagi tremoloda uzluksiz, jo'shqinlik va tremolo bilan har xil ritmik ko'rinishlar chalinishini ko'rsak, Farg'ona – Toshkent yo'llaridagi kuylarda bir muncha tekis, tiniq, jarangdor tremololarni ko'rishimiz mumkin. Professor S.Taxalovning ijrolarida asosan uzluksiz va jo'shqin tremololarning qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin.

Shashmaqomning nasr bo'limidagi asarlarni hamda bastakorlarning mumtoz ashulalarning cholg'u sozida, xususan qashqar rubobida ijro etganda bu asarlarning ashula yo'lini va so'zlarini yaxshi bilish yoki o'rganish rubobi ijrochiligi badiiy xususiyatlarini to'g'ri qo'llashga va asarning badiiy qimmatini saqlagan holda jaranglashiga olib keladi. Chunki ashula yo'lidagi musiqiy jumlar so'z bo'g'inlari bilan chambarchas bog'liqligi bilan ajralib turadi.

Har bir jaranglaydigan tovush va shtirxlarni juda ham turfa xillarini ko'rishimiz mumkin. S.M.Taxalov ularni rang–barang qilib chalishda, asar xarakteriga mos ravishda ularga jilo berib, kerakli obrazni hosil qilib o'ng qo'lning mediatorni boshqarishiga va chap qo'lning torni qanchalik yaxshi sezishiga hamda har ikkala qo'lning muntanosib harakatlariga juda katta ahamiyat beradi.

Rubob ijrochiligi badiiy xususiyatlarini mukammal egallash, asarni to'liq badiiy qimmatli qilib ijro etish sozandadan tinimsiz mehnat va izlanishni talab qiladi. Bu darajaga yetish uchun rubob ijrochisi faqatgina rubob ijrochiligini puxta egallabgina qolmay balki har qanday cholg'udagi badiiy asar ijrosini tushuna oladigan va tahlil qila oladigan musiqiy tafakkurga ega bo'lishi kerak. Bu esa musiqani chuqur his qila olish demakdir. Talabalarga aynan shu musiqani his qila olish qobiliyatini shakllantirib uni tarbiyalab borish asosiy vazifalardan

biridir.

**Foydalanilgan adabiyot va manbalar:**

1. Taxalov S.M. "O`zbek xalq musiqa yozuvlari" Qo`lyozma Oz.D.K kutibxonasida saqlanadi.
2. R.Qosimov "Rubob navolari" Toshkent 1990 yil.
3. Sh.Shoraxmetov "Maqom yo`llaridagi mashqlar va kuylar to`plami" Toshkent 2005 yil.
4. WWW.Google.com.
5. www.ziyonet.uz

